

TONG YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi
Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2007-yil
2 - 8
- aprel
N:14
(66607)

BILIMDONLAR SARALANDI

Fan olimpiadasi – 2007

Bilimdon, a'lochi, tirishqoq o'quvchilar! Sizlarning mukammal bilim olishingiz, kelajakda oqil, dono bo'lib yetishishingiz, qolaversa, ushbu iqtidoringiz bilan vatanimiz kelajagini yuksaltirishda o'z hissangizni qo'shishingiz uchun respublikamizda juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. 27–30-mart kunlari Toshkent Davlat Texnika universiteti qoshidagi Kompyuter texnologiyalari akademik litseyi hovlisi eng iqtidorli va bilimdon o'quvchilar bilan gavjum bo'ldi. Nima sababdan, deysizmi? Chunki aynan shu kunlari Respublika umumta'lim fan olimpiadasining yakunlovchi IV bosqichi bo'lib o'tdi. Unda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri hamda viloyatlardan tashrif buyurgan jami 258 nafar o'quvchi ishtirok etdi.

(Davomi 2-betda.)



«OLTIN TOJ» SOHIBASI

Bu safar Risolat ISKANDAROVA g'olib bo'ldi. U Xorazm viloyati, Urganch shahridagi 5-maktabning 4-sinf o'quvchisi.
Balli, Risolatxon!

Fan olimpiadasi - 2007

Olimpiadaning avvalgi bosqichlari haqida batafsil ma'lumot berib o'tamiz. I bosqichda ishtirok etgan jami 2124187 nafar o'quvchidan 1376724 nafar 5-8-sinf o'quvchilari bo'lib, ulardan 100-76 ballgacha 467054 nafar, 75-50 ballgacha 578175, 50 balldan past 333165 nafarni tashkil etdi.

II tuman (shahar) bosqichiga 225124 nafar o'quvchilar qatnashgan bo'lsa, 9-sinf bo'yicha 111994, 10-sinf 53975, 11-sinf 59155 nafar o'quvchilar qatnashishdi.

III bosqichda 11-sinflarda jami 4730 nafar, 10-sinflarda 4373 nafar, 9-sinflarda 3822 nafar o'quvchilar ishtirok etishgan.

O'tkazilgan fan olimpiadasining III bosqichida yuqorida qayd etilgan 11-sinf o'quvchilarining 4730 nafar ishtirokchisidan olimpiadaning Respublika bosqichiga qatnashish imkoniyatini qo'lga kiritgan 258 nafar (shundan 3 nafari qoraqalpoq tilidan) g'olib aniqlangan edi.

27-mart kuni IV bosqich Respublika olimpiadasining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Marosimda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim markazi vakillari o'quvchilarni samimiy kutib olib, ularni olimpiada o'tkazish tartibi bilan tanishtirdilar.

Davlat test markazi direktori, Respublika olimpiada tashkiliy qo'mita raisining o'rinbosari Bahrom Mahmudovich Ismoilov so'zga chiqib, ishtirokchilarga test markazi jamoasi nomidan omad tiladilar.

Respublika O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim markazi direktor o'rinbosari Anvar Xolmatovich Yunusov fan olimpiadasining IV bosqichiga yetib kelgan qatnashchilarni qutladilar. Shu bilan birga ushbu ishtirokchilar orasidan olimlar, konstruktorlar, O'zbekistonning kelajagini belgilovchi insonlar yetishib chiqishiga ishonch bildirdilar.

Respublika Ta'lim markazi direktori o'rinbosari Narziqul Turdiyev olimpiada qatnashchilarini shartlar bilan tanishtirdilar. Shartlar ikki turda, ya'ni yozma ish va test shaklida o'tkazilishini eslatib o'tdilar. 28-mart kuni yozma ish, 29-mart kuni esa test o'tkazilishi ma'lum qilindi.

Olimpiadaning tashkiliy jihatdan tartib-intizomli va odilona o'tishi haqida Davlat test markazi direktor o'rinbosari Mahmud To'xtayev so'zladilar. Ular ishtirokchilar yozma ishdan 50 ball, test sinovlaridan 50 ball to'plashlarini ma'lum qildilar. Bundan tashqari, bu bosqichda test

sinovlariga o'zgartirish kiritilib, bitta savolga to'rta javob berilganligi, har bir to'g'ri javobga 1,25 ball berilishini izohlab o'tdilar.

28-mart kuni olimpiada sinovlarining I turi yozma ish bo'lib o'tdi. Sinov haqqoniy o'tkazilishi uchun har bir auditoriyada nazoratchi, ota-onalardan bitta vakil, Xalq ta'limi vazirligi xodimi va auditoriya rahbari o'quvchilarni kuzatib turdilar. Bunda nazoratchilar uyali



aloqadan foydalanishni, ortiqcha daftar olib kirilishni qat'iy ma'n etdilar. Sinov tugagandan so'ng yozma ishlar tekshirilib, ishtirokchilar o'z yozma ishlarini qo'llariga olib ko'rib, natijalar bilan tanishdilar. Bunday yangilikdan o'quvchilar nihoyatda mamnun bo'ldilar. Farg'ona viloyati, Qo'qon iqtisod maktab-internati 11-sinf o'quvchisi Islomjon Madrahimov matematika yo'nalishi

Respublika ko'zi ojiz o'quvchilar maxsus maktab-internatlari o'quvchilari o'rtasida ona tili va adabiyot, matematika fanlari bo'yicha 14 nafar o'quvchi ishtirok etdi hamda har ikkala fan bo'yicha jami 6 nafar g'olib aniqlandi. Namangan viloyati, 45-ko'zi ojizlar maxsus maktabi 12-sinf o'quvchisi Rahimjon Muhitdinov matematika yo'nalishi bo'yicha ishtirok etib, 2-o'rin sohibi bo'lganidan juda mamnun bo'lganligini bildirdi.

Toshkent shahri, Buxoro, Samarqand, Xorazm, Navoiy viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi o'quvchilari yuqori natijalarga erishdilar. Aruxan Axpanbetova qozoq tili bo'yicha, Dilnoza

Asamatdinova qoraqalpoq tili bo'yicha 1-o'rinni egallashdi. Bu esa o'z navbatida viloyatlarning yakunlovchi bosqich sinovlariga puxta tayyorgarlik ko'rganidan dalolat beradi.

Toshkent shahri jamoasi 2006-yil Respublika olimpiadasida 10 ta sovrinli o'rinni olib, 1-o'rinni egallagan bo'lsa, bu yil yuksak natijalar ko'rsatib, 13 qatnashchi sovrindor bo'ldi va faxrli 1-o'rinni egalladi.

Buxoro viloyati jamoasi 2006-yil 7 ta sovrinli o'rin bilan 2-o'rinni olgan bo'lsa, 2007-yil Respublika olimpiadasida ham 7 ta o'quvchi sovrinli o'rinni olib, faxrli 2-o'rinni olishga erishdi. G'ijduvon shahridagi 1-maktabning 11-sinf o'quvchisi Sardor Aminov tarix yo'nalishi bo'yicha 1-o'rin sohibi bo'lganidan faxrlanib, olgan bilimlari uchun ustozlaridan xursandligini ta'kidlab o'tdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand, Xorazm, Navoiy viloyatlari 5 ta sovrinli o'rinni egallab, 3-o'rinni olishga muvaffaq bo'ldi.

Fanlar kesimida tahlil qilinganda, ona tili fanidan 2 ta sovrinli o'rin, o'zbek tili, huquq, informatika fanlaridan 1 ta sovrinli o'rinlarning g'oliblari aniqlanmadi. Umumiy holatda 5 ta o'rin 76 va undan yuqori ball to'plaganlar bo'lmaganligi sababli bo'sh qoldi.

BILIMDONLAR



SARAILANDI

bo'yicha ishtirok etdi. 1-sinovdan so'ng yozma ishi javobini eshitib, xafa bo'lgani sezilib qoldi. Chunki beshta misolga kuchi yetgancha javob berib, 22 ball to'plagan ma'lum bo'lgan edi. Lekin Islomjon o'zini qo'lga olib, umidi so'naganini, hali oldinda test savollari turganligini aytib, kayfiyatimizni ko'tardi. I tur sinovidan o'tgan ishtirokchilar II turga tayyorgarlik ko'ra boshladilar.

O'quvchilar orziqib kutgan 29-mart kuni II tur test sinovlari ham boshlab yuborildi. Ishtirokchilar qalblaridagi quvonchni, ko'z yoshlarini ifodalab, ta'rif-tavsiflash juda qiyin edi.

30-mart nafaqat o'quvchilar, balki ota-onalar, ustozlar uchun ham hayajonli kechdi. Olimpiadaning tantanali yopilish marosimida g'oliblar e'lon qilindi.

Natijalarga ko'ra, fanlar olimpiadasining yakunlovchi IV bosqichiga qatnashgan 258 nafar o'quvchidan 61 (3 tasi qoraqalpoq tili) nafari sovrinli o'rinlarni egalladilar. Ulardan 47 nafari umumiy o'rta ta'lim maktablari, 14 nafari o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilardir.



Olimpiadaning yopilish marosimida g'oliblarga Xalq ta'limi vazirligi tomonidan guvohnoma topshirildi. Xuddi shu kuni Respublika fanlar olimpiadasining IV bosqichi yakunlanib, ishtirokchilar va mehmonlar tantanali ravishda kuzatib yuborildi.

Gulyuz ORIFJONOVA.

Oz-oz o'rganib...

Esingizda bo'lsa, biz «A'lochilar sahifa»sini tashkil etgandik. Ularni siz bilan tanishtirishda davom etamiz.



U BARCHAGA NAMUNA

Bobur QURBONBOYEV – 1995-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Amudaryo tumanida tug'ilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahar, Mustaqillik ko'chasi, 36-uy, 21-xonadonda istiqomat qiladi. Bobur zukko, bilimdon, barcha topshirilgan vazifalarni puxta bajaradi.

5-o'zbek sinf sardori. Barcha fanlardan a'lo baholarga o'qiydi. Sevimli fanlari ona tili va adabiyot, geografiya, tarix, rasm, jismoniy tarbiya, ingliz tili. Raqs san'ati va sportga ham qiziqadi.

Kelgusida mustaqil O'zbekistonimizning munosib farzandi, Mirjalol Qosimovdek mashhur futbolchi bo'lishni oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Nukus shahridagi 16-o'rtta maktab direktori
L.Z.UTEGENOVA,
sinf rahbari
M.S.KABULOVA.

«BOLALARGA JONIM FIDO»

O'zbek bolalar adabiyotining shakllanishi, rivoji va dunyoga kelishida ko'pgina iste'dodli adiblar, zabardast shoirlar va qalami o'tkir dramaturglar fidokorona mehnat qilishgan. Bolalar she'riyati, ayniqsa, XX asrning 30 – 50-yillarida yaxshi rivojlangan edi. Zafar Diyor, Sulton Jo'ra, Shukur Sa'dulla, Ilyos Muslim, Hakim Nazir, Quddus Muhammadiy, Po'lat Mo'minlar bu adabiyotga yangi-yangi mavzular olib kirgan edilar. Ana shu shoirlar orasida Ilyos Muslim alohida o'rin tutardi. Butun umrini bolalar adabiyotiga bag'ishlagan shoir «Bolalarga jonim fido» deb yashadi. 1973-yil, 20-avgust kuni menga bir kitob hadya qilgan ekan. O'sha kitobidan bir she'r keltiray:

TURNALAR

*Turnalar, hoy turnalar,
Pastlab uchingiz.
Bizning ko'l va daryolar,
Bag'rin quchingiz.*

*Hammani xursand qilib,
Keldingiz shu choq.
Ko'ksimizda tizilib,
Tuzing arg'imchoq.*

*Yayrab-yayrab uchingiz,
Keng osmon bo'ylab.
Qo'rqmay yerga tushingiz,
Sayrashib, kuylab.*

*Bizlar ko'l, dengizlarni,
Etdik xo'p obod.
Siz ham tushib bizlarni,
Qiling juda shod.*

MAQOLLAR MAG'ZINI CHAQA OLASIZMI?



YIG'LASA ONAM YIG'LAR, QOLGANI YOLG'ON YIG'LAR

Bunda onaning bolaga naqadar mehribonligi, uning g'am-g'ussasiga sherik bo'lishi, dardni bab-barobar tortishi, boshqalar esa uning ko'ngli uchingina, nomigagina o'zini qayg'urgan qilib ko'rsatilishi ifoda etilgan.

YIG'LOQI QIZNING TO'YIDA YOMG'IR YOG'AR

Ma'lumki, to'y-ma'rakada kishining xonadoniga tumonat odam keladi, shunda ob-havo aynib, qor-yomg'ir yog'ib tursa, bundan ortiq ko'ngilsiz hol bo'lmaydi. Odatda qizning to'yida yomg'ir yog'sa, «qiz yig'loqi ekan», yigitning to'yida yomg'ir yog'sa, «kuyov bola xurmachaning tagini yalagan ekan», deb hazil qilib qo'yadilar.



YIG'LASA – QAYG'USI BIR, KUYLASA – CHOLG'USI BIR

Buni biri qayg'urganda, ikkinchisi ham chin dildan qayg'uradigan, dard-alamga sherik bo'ladigan, biri quvonganda ikkinchisi ham astoydil quvonadigan haqiqiy do'stlarga nisbatan qo'laydilar.

Xudoyberdi TO'XTABOYEV tayyorladi.

RAHMAT SENGGA, «TONG YULDUZI»!

Aks-sado

Assalomu alaykum barchamiz uchun qardli bo'lgan gazetam! Sening rang-barang sahifalaringni avval otanalarimiz, keyinchalik biz, mana endi farzandlarimiz o'qib, kamol topishyapti.

O'g'lim Alisherni bir yilga obuna qildirganman. Har dushanba gazetaning kelishini intiq kutamiz va birgalikda o'qib chiqamiz. O'zim tibbiyot oliygohida dars beraman. Shunday bo'lsa-da, gazetadagi materiallarni zo'r qiziqish bilan o'qib boraman. Chunki unda chet el elchixonalari xodimlarining chiqishlaridan tortib, yurtimizdagi yangi-yangi qurilishlar haqida ham



ma'lumotlar olsa bo'ladi.

Yaqinda e'lon qilingan «Orzulari osmon bolalar» nomli maqolani o'qib, juda ta'sirlandik. Unda o'g'lim qo'shiqlarini sevib tinglaydigan bolakay – Umidjon Turobov haqida ham yozilgan ekan. Uning qayerda o'qishini, manzilini bilib oldik va o'g'lim ikkimiz uni ko'rishga bordik. O'g'lim Umidjon bilan yaqindan tanishib oldi va bizni Toshkent Davlat Konservatoriyasida o'tkaziladigan festivalga taklif qildi. Umidjon konkursda «Eng umidli yosh ijrochi» nominatsiyasini qo'lga kiritdi. Men bu bolakayning ota-onasiga chin dildan havas qildim. U esa kezi kelib, katta, taniqli hofiz bo'lib ketganida ilk dastxatini o'g'limga berishni va'da berdi.

Ozoda MUHAMMEDOVA.



SPORT INSONNI TARBIYALAYDI

Qadrli bolajonlar! Siz maktabingiz va mahallangizda sport musobaqalarini tashkillashtirib turasiz-a? Qanday sport musobaqalarini o'tkazdingiz? Sportni suymaydigan tengdoshlaringizni ham jalb eta olayapsizmi? Bugun sizlarga sportsiz o'z hayotini tasavvur qilolmaydigan nogiron sportchilar haqida hikoya qilmoqchimiz.

Yaqinda Respublika Olimpiya zahiralari kollejida O'zbekiston Qahramoni, yozuvchi Ozod Sharofuddinov xotirasiga bag'ishlangan «Xotira - 2007» turniri bo'lib o'tdi. Turnirda beshta sport turi bo'yicha, jumladan, amputant nogironlar o'rtasida kichik futbol musobaqalari o'tkazildi.

- Men bolaligimda avtohalokat sabab bir oyog'imdan ayrilganman,- deydi «Jasorat» ordeni sohibi **Baxtiyor Rajabov**. -Bugun o'zimni sportsiz, futbolsiz tasavvur qilolmayman. Sport insonni tarbiyalaydi, irodasini mustahkamlaydi.

- Men nogiron bo'lishimga qaramasdan, birinchilardan bo'lib O'zbekiston Fizkultura institutini tugatdim,- deydi klubning mohir futbol o'yinchisi **Azizjon Azimov**. - Endilikda klubdagi nogiron bolajonlarga sport bilan shug'ullanishlariga yordam beraman.

- Klubimizda baxtsiz tasodif tufayli bir oyog'idan yoki bir qo'lidan ayrilgan 11 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan amputant nogironlar sportning futbol turi bilan shug'ullanadi, - deydi Respublika Baynalmilal nogironlar futbol klubi prezidenti **Rustam aka Kariyev**. - Klub Amerikada o'tkazilgan futbol musobaqalarida 3 marta ishtirok etgan bo'lsa, 2 marta oltin, 1 marta kumush medalni, Gretsiya, Angliyada o'tkazilgan futbol o'yinlarida esa kumush medalni qo'lga kiritgan. 3 marta jahon chempioni bo'lgan.



Turnirda Respublika Baynalmilal nogironlar futbol klubining Toshkent shahri jamoasi birinchi o'rinni oldi. Aslida nogiron bo'lishiga qaramasdan, sport bilan shug'ullanishining o'zi g'oliblikdir.

Futbolchilarning o'yinlarini kuzatar ekanmiz, sog'lom sportchilardan aslo qolishmaydi, zarbalari kuchli, harakatlari chaqqon. O'zlarini sira nogiron deb hisoblashmaydi.

Feruz SOYIBJON qizi.

MEDALLARING KO'PAYAVERSIN



Hali yosh bo'lsa-da, ko'ksini medallar shodasi to'ldirib turgan bu bolakay endigina 10 yoshni qarshilaydi. Kim ekan, deysizmi? U «Tigryonok-II» kubogi sohibi, Toshkent ochiq birinchiligi va Xotira turnirlari kabi qator musobaqalarda faxriy o'rinlarni egallagan. Bobur Qosimov Toshkentdagi 322-maktabning 3-sinfida o'qiydi. U murabbiyi Qahramon Dehqonov boshchiligida karatening sir-asrorlaridan boxabar bo'lib, irodasini mustahkamlab bormoqda. Haqiqatan ham sharqona qo'l yangi insonning ongini, irodasini tarbiyalaydi.

Biz Boburjonni sportda boshlagan yutuqlari bilan qutlab, doimo shohsupaning eng yuqorisidan joy olishini tilaymiz.

G'OLIB KICHKINTOYLAR

Yaqinda maktabimizda boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida «Quvnoq startlar» sport musobaqalari bo'lib o'tdi. Musobaqani maktab madaniyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor muovini Anya opa Avanesova ochib berdilar. Odatda yosh avlodni ham jismonan, ham ma'nan tarbiyalashga katta hissa qo'shadigan bunday musobaqalar so'nggida g'olib jamoani qutlab, munosib rag'batlantiriladi. Bizda ham shunday bo'ldi. Maktabimiz direktori Nodira opa Yo'ldosheva yuqori sinf o'quvchilari orasida ham ana shunday musobaqalarni o'tkazish kerakligini aytdilar.

Mohinur NURMATOVA,
Farg'ona viloyati, Qo'qon shahridagi
9-maktab o'quvchisi.

YO'L

BELGILARI SO'ZLAGANDA

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)


Nazoratchining jezl tayoqchasi:

Ajoyib ola tayoq,
Uchida qizil chiroq.
Ko'tarilsa tikkaga,
Barchani qilar ogoh.

Tramvay:

Peshonaga yozilgan,
Qayga borib kelishi.
Yurar yo'li chizilgan,
Ko'pdir uning yurishi.

Yurish kerak oldindan,
Kesib o'tmoqchi bo'lsang.
O'tish xavfli ortidan,
Shoshib o'tmoqchi bo'lsang.
Diqqat: xavfli burilish!



«Velosipedda harakatlanish taqiqlanadi» belgisi: 3.9.

Yursang velosipedda,
Shu belgi tursin yodda.

«Sirpanchiq yo'l» belgisi: 1.15.

Qish kunlari ogoh bo'l,
Oldinda sirpanchiq yo'l.


Mototsikllar belgisi: 3.5.

Minganda motoroller,
Transportga yo'l ber!

«Bolalar» belgisi: 1.21.


Belgimning ishorasi,
Yaxshilik nishonasi.
Asta yurgin yo'lingda,
Chiqmasin yo'lingda kimsa.

Bolalar bor bu yerda,
Aslo shoshilma zinhor.
Oshirma tezligingni,
So'ndirma hayot nuringni.



Umida KARIMOVA,
Toshkent tumanidagi
9-maktabning yo'l harakati
qoidalari o'qituvchisi.

(Davomi bor.)



Taraqqiyotga erishish uchun yoshlarimiz salohiyatli, bilimdon bo'lishlari kerak. Chunki ula kelajagimizni belgilashadi. Bu ko'p va xo'p aytilgan gap. Shunday ekan, bi farzandlarimizni qanday o'qityapmiz tarbiyalayapmiz, deya do'ppini yonga qo'yib o'ylab ko'raylik.

KITOB-SIZ DUNYO

Ko'pgina tanishlarim bor, ularning aksari yoshlar haqida misol keltiradigan bo'lsalar, mashhur bir iborani ishlatishadi: «Bugungi yoshlarimiz kompyuterni bilishadi, xorijda o'qib kelishmoqda» va shunga o'xshash so'zlar. Men esa darhol so'zlarini bo'laman-da, KECHIRASIZ, deymen, bitta bola kompyuterda foydalanish bajarsa, uning oldida o'sha kompyuterda o'tiradigan beshta asosan nomaqbul o'yinlar bilan vaqt o'tkazmoqda.

Shu yerda savol tashlayapsiz-a, sezyapman. «Ha, xo'p, nasihatga juda usta ekansan, qanday qilib bolalarni saviyali qilib tarbiyalash mumkin?! Buning biror-bir yo'l-yo'rig'i yoki yozib qo'yilgan qo'llanmasi bormi?» deguvchi «pichingchi» akalarimiz ham topiladi oramizda. Bunga javob tariqasida unutilgan bir masalani o'rta olib chiqmoqchiman: KITOB o'qish!

Bolalarimiz tobora kitob o'qimay qo'yishyapti, e'tibor beryapsizmi?

Hozir kosmos asri, tezlik asri, axborotlar asri, ammo kitobning insoniyat tarixida o'rnini beqiyos ekanligini, uning o'rnini halizamon biror narsa bosa olmasligini internetni o'ylab topgan davlatlarda ham e'tirof etishmoqda. Yaqinda o'zim o'qidim bir joyda. Mashhur ruhshunos Jon Sauz o'zining «Ming yilni jamlagan bahor» asarida quyidagi

jumlalarni hammaga tushuntiradi: «Shu paytgacha odamlar internet har qanaqa axborot tizimini ortda qoldirdi, deb ta'kidlashmoqda. Aslida unday emas. Chunki internet tabiiy jihati bilan kitob va gazetaning o'rnini bosa olmaydi. Bunga eng yorqin misol shuki, gazetalarning minglab saytlari bor, shu saytlar orqali odamlarning o'sha gazetani qog'ozsiz ko'rinishda o'qish imkoniyatlari bor. Ammo men hali «biror-bir gazetani sayt ochgani uchun odamlar olmay qo'yibdi, shuning uchun ham bu nashr xodimlari o'z sohalarini o'zgartirib, gazetadan sayt tayyorlashga o'tib ketishibdi», degan xabarni eshitmadim. Aksincha, avvaliga sayt tashkil qilib, so'ngra uni gazeta ko'rinishiga keltirgan va shuning oqibatida boyib ketgan shaxslarni bilamiz. Xullas, insoniyatning bundan keyingi kashfiyotlari kitob va gazetaning o'rnini odamlar o'rtasidan ko'tara olmasligi kundek ravshandir!»

Menga bu gaplar juda yoqdi. Asosli fikrlar. O'z vaqtida aytilgan fikrlar. Tajribadan o'tgan fikrlar. Shu bois ham men bolalarimizga birinchi navbatda KITOBga mehr qo'yishni o'rgatish kerak, deb hisoblayman. Farzandlarimiz kompyuterning klavishlarini ko'zlarini yumib bosadigan darajaga yetganlarida ham, Qodiriyning «O'tkan kunlar»ini o'qimagan bo'lsalar, ularning salohiyati butun bo'lishiga shaxsan men ishonmayman. Chunki kitob insoniyat kashfiyoti emas, balki ilohiy bir ne'matdir. Internet va kompyuter, xorijdagi yangi o'quv tizimlari odamlar tomonidan kashf

HAD-SIZ

GULBEGA

O'XSHAYDI

etilayotgan yangi bir bosqichlar, xolos. Asrlarni yelkasida ko'tarib kelayotgan, zalvorli o'tmishning nurli sahifalarini o'z zimmasiga olgan KITOBdan bolalarimizni mosuvo qilib qo'yamaylik.

Ikrom ULUG'BOYEV, (Qisqartirib bosilmoqda.)

Munozara uchun mavzu

O'n to'rt yoshlar chamasidagi o'smir qiz qadamini omonatgina bosib maktabga ketmoqda. Baland poshnali tuflil kiyib olgani bois harakatlari beo'xshov. Ustki kiyimi ham shunga monand bejirim, go'yo u maktabga emas, mehmonga yoki teatrga ketayotganday...

kunlarga kiyiladigan tuflil, sport poyabzali va maktabga alohida oyoq kiyim tanlanishi zarur. Lekin shu o'rinda aytish kerakki, vazni og'ir qizlarning oyoq kiyimlari o'rta poshnali bo'lishi kerak. Shunda tananing og'irligi oyoqqa bir maromda tushadi, yassioyoqlikka olib kelmaydi. Shuningdek, chaqaloqlik va bolalik davrida ham to'rtburchak kichik poshnali oyoq kiyim kiygizilsa, yassioyoqlikning oldi olinadi. Men baland poshnali oyoq kiyim kiyishni taqiqlamoqchi emasman. Faqat bunda me'yorga rioya qilish lozim. Zero, me'yor salomatligimiz garovidir...

BALAND POSHNA

Bugungi kunda bu holatni ko'p kuzatish mumkin. Ayri yoshidagi qizlar bugun «moda»ga ruju qo'yishgan. Ammo bashan, o'quvchiga yarashmasligini hech o'ylab ko'rganmisiz?! Tibbiyot nazaridan aytganda esa bu holat qad-qomatning to'g'ri rivojla salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mutaxassislarning fikricha, inson organizm suyak-tayanch tizimi 24 yoshgacha o'sishda davom etadi. Bun anatomiya darsida ham o'qigan bo'lsangiz kerak. Shuning uchun o'smirlik davrida qad-qomatga e'tibor berish, ortiqcha zo'riqishlar saqlanish lozim. Axir har biringiz qaddi raso bo'lishni istaysiz to'g'ri-mi?!

Bu haqida Shayxontohur tumanidagi 14-oilaviy poliklinikani o'smirlar shifokori Muborak opa UMAROVA sizlarga shunday maslahat beradilar:

—Maktab yoshidagi qizlarning suyaklari hali rivojlanayotgan bo'ladi. Ushbu rivojlanish to'g'ri davom etishi uchun esa tashqi salbiy ta'sirlardan saqlanish kerak. Jumladan, baland poshnali oyoq kiyim kiyish oyoq, tos suyaklari va umurtqa pog'onasini ortiqcha zo'riqtiradi. Chunki poshnali tuflida qulay yurolmagani uchun odam o'z harakatlarini boshqara olmaydi. Balog'at yoshidan qizlarning organizmida ona bo'lishga tayyorgarlik boshlanadi, lekin yuqoridagi holatda tos suyagi ingichkalashadi va bu qizlarimiz ona bo'lganlarida ba'zi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Odatda organizm o'sayotgan vaqtda yoshiga mos oyoq kiyim tanlash kerak. O'smirlarning oyoq kiyimlariga ota-onalar ham alohida ahamiyat berishlari lozim. Masalan, kundalik yurishlarga, tantanali



Qo'shimcha qilib aytish kerakki, baland poshnali va bejirim oyoq kiyimlarni nogironlar va qariyalarning o'z o'ngida kiyib yurish ularning ruhiy holatlariga ta'sir etadi.

Qizlarga doim namuna bo'lguvchi onalarimizning bu oradagi fikrlari qanday?!

Umida Mahmudova, o'qituvchi:

—Bugungi kunda ota-onalardan farzandlarimizning maktabda kiyinishlariga alohida e'tibor qaratish talab etilmoqda. Bu haqda ota-onalar majlisida ham ko'plab qidiy fikrlar bildirilmoqda. Qizim 13 yoshda. Uning chiroyli maviy kiyinishini men ham istayman, baland poshnali tuflini naslikka harakat qilaman.

gan, el ardoqlagan xalq san'atkori Sora Eshonto'rayeva, shoiramiz runova va Zulliyaxonimlarni doim «sipo, odmi kiyinardilar», deb Menimcha, biz ulardan o'nak olmog'imiz kerak.

TAJANMANG,

QIZLARJON!

Demak, bizning kiyinishimiz ham salomatligimiz, ham madaniyatimiz belgilaydi. Rus xalqida «odamning kiyinishiga qarab kutib olib, aqliga qarab kuzatiladi», degan gap bor. O'ylab ko'ring, sizni qanday kuzatishlarini istaysiz?! Sog'ligingiz-chi, uni asray olayapsizmi?!

Sayyora JO'RAYEVA.

3. OQ ECHKIMIZ YO'QOLIB QOLDI

Yozning o'rtalariga borib, hovli dim bo'lib ketdi. Begzod, Dilmurod uchchovimiz tomga chiqib uxlaydigan bo'ldik. Allamahalgacha osmonga qarab xayol surib yotamiz. Osmon to'la jimir-jimirday yulduzlar. Huv ana «Yetti qaroqchi», undan nari «Somon yo'li», bir chetda cho'g'day yonib «Oltin qoziq» turibdi. Esimga bir shoirning she'ri tushdi:

«Ko'kdalaning yulduzlari porlaydi,
Imlab-implab qaylargadir chorlaydi»,
deb yozgan ekan u. Dilmurod bir lahzada pishillab uxlab qoladi. Begzod ikkovimiz alla-pallagacha gurunglashib yotamiz. U Toshkentdagi yangiliklardan so'zlaydi, men Ko'kdalaning ajoyibotlaridan aytaman.

Toza havoda miriqib uxlab qolgan ekanman, bobomning tovushini eshitib uyg'onib ketdim.

– Elmurod, bu yoqqa tush, bolam, – deb chaqirdi bobom. Ko'zimni ishqalab turdim. Qarasam, tong otibdi. Pastga tushdim. Chorpayada bobom bilan ko'zday qo'shnimiz Absalom tog'a gaplashib o'tirishibdi. Yuzimni yuvmaganim uchun tog'aning qo'lini olmadim. Salom berib qo'ya qoldim. Bobom gap boshladi.

– Elmurod, mana Absalom tog'ang. Ho'v Qayrilmada ozgina yerga no'xat ekibdi. No'xati pishib, o'rimga kelib turibdi ekan. Biroq, mol-jon ekinimni payhon qilib yotir, deb kiribdi. Shunga tog'ang no'xatini yig'ishtirib olguncha qo'ylaringni uzoqroqda boqib tur, uqdingmi, bolam?

– Hm, – deb bosh silkidim.

Choydan keyin bobomning maslahati bilan qo'yechkilarimni archalik qirga haydaydigan bo'ldim. Archalik uyimizdan biroz olisda, lekin juda chiroyli

– Bor, jonivor, sen ham bir yayra!

Bir-ikki yildan beri bu yoqlarga kelmagandim. Nazarimda archazor kengayib, qalinlashib qolganday edi. Oldimiz, o'ng-u so'limiz archa, archa, archa... To Shaxshor tovgacha tizilib turibdi. Begzod xurjunni yelkasiga oldi. Men kattaroq bir archani ko'zlab, yuqorilab ketdim. Oxiri ostidan chuldirab buloq oqib yotgan, sershox archaning tagiga jun sholchani yoyib joy qildim.

– Ke, bismillosiga buloq suvidan to'yib bir simiraylik, jo'ra, – dedim Begzodga. – Bobom aytgan, archa suvini ichgan odam yuz yoshga kirarmish.

Ikkovimiz cho'nqayib olib buloqdan hovuch-hovuch suv ichdik. Keyin tekisroq bir yerga borib olib, to'p tepisha ketdik.

Jiqqa terga botib, rosa charchadik. Jun sholchaga yonboshlab qorinni aldadik. Qurt so'rdik, olmaoqi yedik. Goho boshimni ko'tarib qarab qo'yaman. Qo'yechkilar olislab ketib qolmadimi ishqilib? Yo'q, ho'v ana, serkavoy bo'ynidagi qo'ng'irog'ini jiringlatib podaga bosh bo'lib yuribdi. Tizzadan xushbo'y giyoh emasmi, mollarimiz yerdan bosh ko'taray demaydi.

Bir vaqt Begzod:

– Endi nima qildik? – deb so'radi.

– Bilmadim. Sen nima desang, shu.

– Unda topishmoq aytishamiz.

– Mayli. Topolmagan topganni orqalab ho'v anavi ko'ktoshgacha olib borib keladi.

– Kelishdik, – dedi Begzod, – sen boshlay qol.

Men peshonamni ishqab turdim-da:

– Archaning xosiyatlarini aytib beraqol, jo'ra, – dedim.

Begzod qizarib kuldi.

– Archa yangi yilda har bir uyda aziz mehmon

yerlar. O't ham mo'l. Qo'ylarim rosa to'yadigan bo'ldi, bir yog'i Begzod ham archazorini ko'rib yayrasin, deb quvondim.

Choydan keyin enam xurjunga ikki butun non, to'rt kesim pishloq, bir yelim shishada qatiq, shapaloqday go'sht, bir hovuch qurt, to'rt chaqmoq qand solib berdi. Men eshakni egarladim. Begzodning ko'zi o'ynadi. U xurjunni egarga solmasimdan lip etib eshakka minib oldi.

– Men oldida o'tiraman, Elmurod, – dedi sevinib.

– Bo'пти, yana chatanog'ing kerilib qolmasin, – deb kuldum. Bir qo'ra molni oldimizga solib jo'nadik.

Bobomning yaxshi bir gapi bor. Molli uy – moyli uy, deb qo'yadi ba'zan. Chorvaning xosiyatidan gapirsaku, baxshi bo'lib ketadi.

– Eti tomog'ingga bop, terisi oyog'ingga qop, muguzi pichog'ingga sop, ichagi qo'buzingga tanob! Chorvaning bitgan-turgani koni foyda.

Yo'lga chiqqanimizga biror soat bo'ldi. Qo'ylarning pinjida qo'zilar iring'ishlab o'ynaydi, ulolarim dikonglab havoga sakraydi, onalarining yeliniga yopishmoqchi bo'ladi. Tog' tarafdin yengil shabada esadi, dimog'ingizga yovvoyi gullarning isi ufuradi. Yo'l bo'yidagi sap-sariq gulxayrilar shamolda egilib salom beradi. Men

oldimizdagi bir qura xazinaga qarab o'y suraman: maktabni bitirsam, Qarshigami, Samarqandgami borib, albatta o'qiyman. Agar o'qishga kirolmasam, Ko'kdalaga kelib, chorvachi fermer bo'lanam. Minglagan qo'yim, yuzlagan otlarim bo'ladi. Xalqqa go'sht, sut, jun, chopqir ot, qimiz yetkazib beraman.

Biror soatdan mo'lroq yo'l yuridik. Bir vaqt Begzod:

– Vuy, anovi archalarni! Qara, Elmurod, namuncha ko'p ular... – deb qichqirib yubordi. Ha, archalikka yetib kelibmiz.

Eshakdan tushdik. Xurjunni olib, bir chetga qo'ydik. Qo'yechkilarni adirga haydadim. Keyin eshakning egar-jabdug'ini olib, uni ham bo'shatib yubordim.

1

bo'ladi. U ko'p yil umr ko'radi. O'zing aytding, archa suvi sog'liqqa foyda ekan. Xo'sh, yana... Bo'ldi, e, do'stim, bilganlarim shu. Ke, opichlay.

– Shoshmay tur. Avval halollab olaylik.

– Men archa to'g'risida bilganlarimni aytib beray. Keyin opichlaysan. Xo'sh deganingdan, archa ming yoshga kiradi. U tog'larda ikki ming metr balandlikda o'sadi. Uning urug'ini qushlar og'zida olib kelib ekib ketadi. Archadan beshik yasalsa, bunday beshikka qurt-qumursqa yo'lamaydi. Uyning tomiga archadan to'sin solsang, yuz yilgacha chirimaydi. Archa o'tiniga pishgan tandirkabobning mazasi og'zingdan ketmaydi. Archa novdasidan tish kovlagich yasab olsang, tishing og'rimaydi. Archa suviga qizlar sochini yuvsa, sochlari bir muloyim bo'lib, yaxshi o'sadi. Ana, jo'ra, bo'ldi, kel, endi orqala!

Begzod meni opichlab yuz qadamcha naridagi ko'ktoshgacha olib bordi. Qaytib kelib topishmoq aytdi:

– Yengil mashinalar to'g'risida bilganlaringni aytib beraqol, do'stim. «Volga»ning necha xili bor? «Neksiya» bilan «Lasetti»ning farqi qanaqa? Qaysi mashinani «buxanka» deyishadi?

Rostini aytsam, Begzodning birorta savoliga javob berolmadim. Nega desangiz, biz tomonlarda yengil mashina deyarli yo'q. Turgan yerimiz katta tog'lik, qir-adirlar. Bu yoqlarda yengil mashinaga yo'l bo'lsin. Shuning uchun bizdagilar ko'proq yuk mashinasi olishadi. Ro'zg'orga asqotadi-da.

– Bay berdim, Begzod, ke, orqamga min! – dedim. Begzod ham menga o'xshab mashinalarning farqi-narxini aytib berdi-da, meni quchoqladi. Begzodni zing'illatib ko'ktoshga olib borib keldim.

Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.

«O'zbek xalq ertaklari»
kitobidan

– Ofarin, Quyosh yerining pahlavoniga, – debdi.

Bu so'zdan Rustam ajablanibdi.

– Siz mening Quyosh yerining odami ekanimni qayerdan bildingiz?

– Buni faqat men emas, butun xalq biladi. Sizni necha yillardan beri intizorlik bilan kutadilar. «Bukri dev»ni o'ldirib, xalqni azobdan qutqardingiz. Sizning nomingiz – Rustam, kasbingiz – o'tinchilik. Buni menga bobom hikoya qilib bergan. Qani, yuring, mening birinchi xizmatim sizni xalqqa tanishtirishdan boshlansin, – debdi qiz...

Ikkovlari yerosti dunyosidagi shaharga yo'l olibdilar.

QUYOSH YERINING
PAHLAVONI

Ular yurib-yurib keng yalanglikka chiqishibdi. U yerda odam ko'pmish. Birovlar kiyimini yirtib boshini yerga urib yig'lar, ba'zilar behushlarga suv berib, sabr-toqat qilishga undarmish. Uzoqdagi tepa ustida o'n to'rt yashar bola bir qo'yni o'tlatib o'tirganmish. Bolaning va qo'yning ko'zlari bog'langan emish. Olomon ichidan bir erkak bilan ayol o'zlarini hadeb bola o'tirgan tomonga tashlarmish, xaloyiq bo'lsa ularni ushlab qolarmish.

Rustam bunga hayron bo'lib, qizdan so'rabdi:

– Ey, Tong Guli, menga bir sirni aytib ber.

Tong Guli yig'lab:

– Ikki yildan beri xalqimiz har kuni mana shunday motam tutadi, – debdi.

Rustamning hayrati haddan oshibdi.

– Ey, Tong Guli, tezroq ayta qol, – debdi.

– Bundan bir necha yil ilgari mamlakatimizda bir ajdar paydo bo'ldi. Ko'p xonadonlarni xarob qildi. Mollarni qirdi. Ajdar shu tepa orqasida yashaydi. Oxirida donolar o'ylab bir yo'l topdilar. Har kuni tong paytida ajdar qorni ochib, shaharga hujum qilmoqchi bo'lganida, yo'lga bir bola bilan bir qo'yni qo'yishadi. Ajdar yo'lida uchragan bola bilan qo'yni yeb, iziga qaytib ketadi. Navbatma-navbat, bolasi borlar bolasini, befarzandlar esa qo'yini ajdarga yem qilib beradi, – qiz chuqur xo'rsinibdi, – bultur shu vaqtlarda o'n uch yoshli singlimni qurbon qilgan edik. Bugun ham shahardagi hurmatli odamlardan birining farzandi qurbon qilinsa kerak. Xalq ko'p yig'ilibdi, – debdi qiz.

Davomi keyingi sonda.

Ajdodlarimizni o'rganamiz

AMIR TEMUR BOBONGIZ HAQIDA NIMALARNI BILASIZ?

Amir Temur Ko'ragoniy (1336-1405).

Umri - 70 yil.

* * *

Otalari - Muhammad Tarag'ay.

Onalarining ismi - Tegin moh begim.

* * *

-Necha yoshda maktabga borgan?

-Temurbek yetti yoshda maktabga borgan.

Zehni o'tkir, odobli bola bo'lgan. Bir o'qigan narsasini darhol yodlab olgan.

* * *

-Nega Sohibqiron?

-Sohibqiron - Amir Temur bobongizning laqablaridir. «Sohib» - ega, «qiron» - yulduzlar ilmida Zuhra va Mushtariy sayyoralarning yaqinlashgan payti. Uni «qiron burji» deb ataydilar. Bu voqea har sakkiz yuz yilda sodir bo'larmish. Dunyoda uch buyuk zot - Iskandar Zulqarnayn, Muhammad Payg'ambar va Amir Temur bobongiz «qiron burji»da tug'ilgan.

* * *

Ibn Arabshoh degan tarixchi Temurbek tug'ilgan kechasi havoda temir qalpoqchaga o'xshagan qandaydir narsa paydo bo'lganini yozgan.



* * *

-Qachon taxtga o'tirgan?

-Amir Temur bobongiz 1370-yilda hukmdorlik taxtiga o'tirgan.

* * *

-Aka-ukalari bo'lganmi?

-Bo'lgan. Ular Olamshayx, Suyurg'atmish, Jo'ki, singillari - Qutlug' Turkon oqa, Shirinbeka oqa.

* * *

-Farzandlari 6 nafar deyishadi. Shu to'g'rimi?

-Farzandlari 6 nafardan ko'p bo'lgan.

1. Muhammad Jahongir Mirzo (1356-1376).

2. Umarshayx Mirzo (1356-1394).

3. Mironshoh Mirzo (1366-1408).

4. Shohruh Mirzo (1377-1447).

5. Jahonshoh, 1367-yilda tug'ilgan. Yosh nobud bo'lgan.

6. Ibrohim. Yosh nobud bo'lgan.

7. Qizlari - Tog'ayshoh Oqabegim. Uni Aka begi (akaning, ya'ni A.Temurning «bek qizi» ma'nosida) der edilar.

8. Yana bir o'g'illari borligi haqida ma'lumot bor.

Huzorda Elyor degan dehqon bor edi. Oilasi katta, serfarzand kishi edi. Shu odam korizlar qazib, adirlikka suv chiqarib, keng uzumzor bog' yaratdi. Bu ishlarni bajarguncha ancha-muncha sarf-xarajat qilibdi. Koriz ilmi ustasi va lahm qazuvchilardan biroz qarzdor ham bo'lib qolibdi. Yaxshiyamki, mamlakatda yangi o'zlashtirilgan yerdan birinchi yilda soliq olinmas edi. Yangi yilda yerga bug'doy, arpa sepibdi, mosh ekibdi. Kuz kelib, hosil yerdan ko'tarilganda dehqonning ko'zi quvna bdi. Endi qarzlardan qutulaman, deb o'ylab turganda soliqchilar kelishib, olingan hosilni uch to'daga bo'lmoqni ko'zlabdilar. Elyor dehqonning ko'ziga dunyo qorong'i tortib, yuragiga g'ulg'ula tushibdi.

O'sha kunlari Amir Temur Kesh shahriga kelgan ekan. Elyor dehqon o'zi yetishtirgan bug'doydan shirmoy kulchalar tayyorlab, Sohibqiron huzuriga yo'l olibdi. Qabuliga kelgan har bir kishining rasmini chizib, Amir Temurga ko'rsatishar ekan. Dehqonning suratini ko'rgan zahoti: - Bu yaxshi odamga o'xshaydi! Nechun yuzida iztirob? Tez olib kiring uni! - debdi Sohibqiron.

Eshik og'a dehqonni ichkari boshlabdi. Shohona xona shirmoy non hidiga to'libdi.

Elyor dehqon dasturxonga o'ralgan kulchalarni Amir Temurga uzatibdi.

- Kulchalar o'zing yetishtirgan bug'doydanmi? - so'rabdi Sohibqiron.



Shundan so'ng mamlakatda dehqonchilik yana-da gurkirab rivojlanibdi. Elyor dehqonning nomi tillarda doston bo'libdi. U xazinadan ajratilgan oltin hisobiga xo'jaligini tiklab olibdi. Yildan-yilga oilasiga baraka kirib, tez orada boyib ketibdi: bir o'g'liga tegirmon, ikkinchisiga moyjuvoz, uchinchisiga qandolatchilik do'koni qurib beribdi va el-yurt orasida Elyorboy degan nom bilan mashhur bo'libdi.

(Rivoyat)

- Shunday, amirim! - javob qilibdi Elyor dehqon.

- Ne arzing bor?

Elyor dehqon soliqchilarning g'irromligi haqida so'zlabdi.

Amir Temur vazirini chaqirib, ishni taftish etishni, qonunni buzib, dehqonlarni qiynayotgan soliqchilarga tegishli jazo berishni va ularning o'rniga sofdil, iymonli kishilarni tayinlashni buyuribdi.

- Farzandlaring ko'pmi? - so'rabdi so'ng.

Elyor dehqon serfarzand ekanligini aytibdi.

Amir Temur o'ylanib qolibdi. So'ng:

- Agar amaldorlar va kalontorlar oddiy fuqaroga jabr-zulm qilsalar va shu orqali bechoralarga zarar yetkazgan bo'lsalar, zararni kalontorlardan undirib, jabr ko'rganlarga bersinlar, toki ular yana o'z hollariga qaytsinlar. Serfarzand oilalardan imtiyozli soliqlar olish yo'lga qo'yilsin! - degan farmon e'lon qilibdi.

To'liqin HAYIT.

«Kamolot» – bizga qanot!



«Kamolot» Yoshlar ijtimoiy harakati Toshkent shahar bo'limi Kengashi tomonidan 17 – 31-mart kunlari «Qadriyat, urf-odat, an'ana va yoshlar» festivali tashkil etildi. Festivalda tuman sardorlari va yetakchilari kengashining a'zolari, Oliy ta'lim muassasa yetakchilari, harakatning faol a'zolari ishtirok etdilar. Poytaxtimizning har bitta tumaniga bittadan viloyat birlashtirilgan bo'lib, unda ushbu viloyatning milliy urf-odatlari, an'analar, tarixi sahna ko'rinishida o'z ifodasini topdi. O'z ichiga ko'plab an'analar, xalq o'yinlarini qamrab olgan bu festivalda «Milliy liboslar», «Milliy qadriyat, urf-odat», «Xush kelibsiz, hurmatli mehmon!», «Navro'z va yoshlar», «Ajdodlarimizga munosib avlod bo'laylik!», «Qadriyat, urf-odat, an'ana va yoshlar» mavzularida chiqishlar uyushtirildi.

Milliylikka yo'g'rilgan holda bezatilgan har bir bo'lmada viloyatlarning milliy kiyimlari, so'zanalari, milliy taomlari bu yerga kelgan mehmonlarda o'zgacha taassurot qoldirdi.

MILLIY URF-ODATLAR YOSHLAR TALQINIDA

–Biz Xorazm viloyatining urf-odatlarini yoritib berishimiz kerak,-deydi festival ishtirokchisi Mirzo Ulug'bek tumani-dagi 50-maktabning 10-«A» sinf o'quvchisi Ziyoda Xudoyberganova. –Festival bahona bu viloyatning o'tmishi, boshqa viloyatlardan o'zgacha bo'lgan to'y marosimlari, raqslarini o'rgandik. Kiyimlarimizni ham xorazmlik tengdoshlarimizning buvilari, bobolaridan oldik. Ba'zi liboslarni esa qizlar o'z qo'llari bilan tikishgan.

–Men Toshkent radio-texnika kasb-hunar kollejida o'qiyman, - deydi Sobitali Tursunov. –Bizning Chilonzor tumanimizga Qoraqalpog'iston Respublikasining urf-odatlarini yoritish topshirilgan. Bu respublikaning milliy kiyimlari ham urf-odatlarini singari o'zgacha: Menga, ayniqsa, ularning to'y marosimlari juda yoqdi. Hatto qoraqalpoqcha so'zlashishni ham o'rganib oldim.

Bayram so'nggida festivalning shahar bosqichida Shayxontohur tumani g'olib deb topildi va «Kamolot» YOIH Toshkent shahar bo'limi Kengashi tomonidan esdalik sovg'alari va diplomlar bilan taqdirlandi.

Ozoda TURSUNBOYEVA.



QUTLAYMIZ!

Aziz bolalar, xabaringiz bor, Onajonlar bayrami arafasida «Sog'lom avlod uchun» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi gazetamiz bilan hamkorlikda

«Onajonim-mehribonim,

Sen-la yorug' qalb jahonim» nomli insholar tanlovini e'lon qilgan edi. Tahririyatimizga kelgan maktublardan saralab, eng yaxshilarini tanlab oldik. G'oliblar «Sog'lom avlod uchun» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi tomonidan belgilandi. Kuni kecha esa g'oliblarni taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Unga ko'ra:

Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumanidagi Nizomiy

ko'chasi, 67-uy, 29-xonadonda istiqomat qiluvchi Shahribonu XOLBOYEVA

birinchi;

Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi 2-umumiy ta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi Umida SHARIPOVA

ikkinchi;

Sirdaryo viloyati, Guliston shahridagi 16-maktabning 5-«G» sinf o'quvchisi Mahliyo A'ZAMQULOVA esa **uchinchi** o'rinni egalladilar. Biz ham gazetamiz nomidan ularning yutuqlari bilan samimiy qutlaymiz!

Harflarning o'rnini almashtirib, suratdagi sabzavotlar nomini tusing.

AGLIVAL,
OKARSHATK,
ZISBA,
DOPIROM,
GIROBOND,
MAKAR,
KADERIS,
NAYUQUPL.



QO'ZICHOG'IM

(Qo'shiq)

Qo'zichog'im ma'raydi,
Mendan nima so'raydi?
O'tlar yulib bersam ham,
Ma'rashini qo'ymaydi.

Qo'zichog'im ma'raydi,
Chor atrofga qaraydi.
Ma'rashini angladim,
Onasini so'raydi.

Qo'zichog'im – oppog'im,
Qora ko'zli munchog'im.
Dikir-dikir o'ynagan,
Mening mitti o'rtog'im.

Senga o'tlar berayin,
Manglayingni silayin.
She'rlar yozib senga men,
Qo'shiq qilib kuylayin.



Axror ERNAZAROV,
Samarqand viloyati,
Nurobod tumanidagi
64-maktabning 6-sinf
o'quvchisi.

TONG YULDUZI

BOSH MUHARRIR v.b:

To'lg'in HAYITOV

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,

Dilbar ALIMJONOVA,

Qahramon QURANBOYEV,

Jabbor RAZZOQOV

(«O'zbekiston» NMIU bosh

muharrir o'rinbosari),

Dilmurod RAHMATILLAYEV,

Dilshoda DADAJONOVA,

Feruza JALILOVA

(Bosh muharrir o'rinbosari),

Sobirjon SHARIPOV,

Ergashvoy SARIQOV.

Muassislar:

O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi,

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi,

«KAMOLOT» Yoshlar
ijtimoiy harakati,

«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan
xalqaro xayriya
jamg'armasi.

Gazeta O'zbekiston
matbuot va axborot
agentligida
0208-raqam bilan
2007-yil 2-fevralda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir:

«O'zbekiston»

nashriyat-matbaa ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston»

nashriyat-matbaa ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib

sahifalandi va chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba

kuni chiqadi. Hajmi A-3,

2 bosma taboq.

Adadi - 60567

Buyurtma N: J3491

Dizayner va
sahifalovchi:

Fazliddin

SHOYODGOROV

Navbatchi:

Muharrama

PIRMATOVA

Rassomlar:

Nodira MIRZAYEVA,

Feruz MATYOQUBOV.

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong1924@mail.ru

Tel: 144-27-25

144-63-08

Tel/ faks:

(99871) 144-38-10